



BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHIDA PAPE MASHE TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

Andijon davlat pedagogika institute

maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

yaqubovamuhabbat90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, bolalar ijodiy rivojlanishida pape mashe texnologiyalarining ahamiyati hamda g'arb va sharq olimlarining bolalar ijodiy rivojlanishiga doir tadqiqot natijalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pape mashe, ijodiy rivojlanish, texnologiya, mayda motorika, yirik motorika

Abstract: This article is intended for students of the preparatory group of a preschool educational organization and highlights the importance of papier-mâché technologies in the creative development of children, as well as the results of research on the creative development of children by Western and Eastern scientists.

Keywords: papier-mâché, creative development, technology, fine motor skills, gross motor skills

Аннотация: Статья рассчитана на учащихся подготовительной группы дошкольной образовательной организации и посвящена значению технологий папье-маше в творческом развитии детей, а также результатам исследований творческого развития детей западными и восточными учеными.

Ключевые слова: папье-маше, творческое развитие, технология, мелкая моторика, крупная моторика

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar nihoyatda kengayib bugungi kunda davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasining ayni davrdagi rivojlanishi buning yorqin isbotidir. Maktabgacha ta'limning bosh maqsadi bolalarni maktabga tayyorlash, ularni sog'lom har tomonlama rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan barkamol shaxsni voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lim bola hayotining muhim

davrlaridan biri hisoblanadi⁹⁹.

Maktabgacha talim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan keng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida¹⁰⁰, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019 yil 8-maydagi Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4312 son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi¹⁰¹. Bu chiqarilayotgan Qaror va Farmonlar o‘z navbatida intellektual, barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ushbu farmon va qarorlar maktabgacha ta’lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash¹⁰², ularni malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, farzandlarimizni har tomonlama intellektual¹⁰³, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi masalalarni hal etishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu muhim vazifalarni hal etish bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda bolalarning ijodiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish asosiy vazifalardan ekanligini aytib o‘tildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish vosita va usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish asosiy vazifalardan biri bo‘lib, faoliyatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon didaktikasi va metodikasida bu borada zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosi ko‘pincha ta’lim uzviyligini ta’minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolada bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishda ijodiy faoliyatning roli juda beqiyos sanaladi. Bolaning berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo‘lishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan¹⁰⁴, me‘yor va mezonlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa bolada atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. Xususan, “Bolada ijodkorlik xususiyatlarini qanday tarbiyalash mumkin?”- degan dolzarb muammo bugun paydo bo‘lmagan. Azal-azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo‘lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan

⁹⁹ MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI Xasanova Marg‘uba Safar Qizi Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida Katta o‘qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, 412-b 2020-y

¹⁰⁰ <https://muhaz.org/raqobatbardosh-mutaxassislar-tayyorlash-maqsadida-ozbekiston.html>

¹⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

¹⁰² <https://muhaz.org/1-mavzu-malumatlar-bazasini-loyihalash-va-administratorlash.html>

¹⁰³ <https://muhaz.org/1-seminar-mavzu-har-tomonlama-barkamol-shaxsni-shakllantirish.html>

¹⁰⁴ <https://muhaz.org/j-p-morgan-riskni-kelajakdagi-sof-daromadga-nisbatan.html>

shug‘ullanuvchi pedagoglar, tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Ta’lim va tarbiya,¹⁰⁵ shaxsning jamiyatda shakllanishi, qobiliyatlarni rivojlantirish hanuzgacha pedagogikaning eng asosiy masalasi bo‘lib qolmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko‘p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo‘lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Turli xil tasviriy materiallar bolalarning idroki va g‘oyalarini boyitadi, ularning san‘at, haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi,¹⁰⁶ ular uchun yanada jozibali va qiziqarli qiladi va turli xil materiallarni o‘zlashtirganda, bolalar o‘ziga xos uslubni shakllantiradilar.¹⁰⁷

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bolada faollik va ijodiy rivojlanishini rivojlantirish bosh pedagogik amallardan hisoblangan. Qadimgi dunyo tarixi, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb allomalari bu borada salmoqli fikrlarni bayon etib o‘tganlar.¹⁰⁸

Olimlar ijodiy rivojlanishini bolalar faoliyatining turli jihatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydigan universal qobiliyat deb bilishadi. Bolalar ijodi - bu shaxsning mavjudligi va rivojlanishining asosiy yo‘li bo‘lib, unda bola atrof-muhitni tushunishini namoyon qiladi, tajriba qadriyatlarini, uning ichki dunyosini, idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlarini, g‘oyalarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini ochib beradi.

Xususan, **Pifagor** (miloddan avval VI asr) samarali hamda to‘g‘ri ta’lim jarayoni pedagog va tarbiyalanuvchining har birining xohishiga asosan tashkil qilinishi kerak, deb aytadi. Uning fikriga ko‘ra, bolada qiziqish, uning pedagogik maqsadga bo‘lgan ijodiylik bo‘lmasa, ta’lim va tarbiya jarayoni samarali kechmaydi¹⁰⁹.

Demokrit (miloddan avval 460-370-yillar) bolalarda aqliy va ijodiy salohiyatni shakllantirish lozimligiga alohida e’tibor qaratgan. Yaxshi pedagog bolalarda noma’lum narsalar mohiyatini anglashga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirishi lozim, bolalarda noma’lum narsalarga nisbatan munosabatni, shuningdek, burch va mas’uliyat hissini tarbiyalashi kerak, deb aytgan. Bolaning olamga qiziqishi asosida uning ijodiy munosabati rivojlanishi bayon etilgan.¹¹⁰

Platon esa (miloddan avval 347-427-yillar) estetik tarbiyaga alohida ahamiyat bergan. Olamga estetik qarash bolaning olamni ijodiy anglashidagi usul sanaladi. Estetik tarbiyada she’riyat, musiqa, raqs, o‘yinlar bolada ijodiy rivojlanishini rivojlantiruvchi omillar ekanligini ta’kidlagan¹¹¹.

¹⁰⁵ <https://muhaz.org/1-tarbiya-tushunchasi-tarbiyaning-maqsadi-va-vazifalari-sharq.html>

¹⁰⁶ <https://muhaz.org/keys-stadi-v2.html>

¹⁰⁷ <https://muhaz.org/download/bolalarni-maktab-talimiga-tayyorlashda-ijodkorlikni-rivojlanti.doc>

¹⁰⁸ Педагогические идеи отечественных и зарубежных мыслителей о воспитании, образовании и развитии ребенка // [#128](https://studme.org/378329/pedagogika/pedagogicheskie_idei_otechestvennyh_zarubezhnyh_mysliteley_vospitaniy_obrazovaniy_razvitiy_rebenka).

¹⁰⁹ Пифагор. Педагогика и творчество, М.А. Soloviev, 2009.

¹¹⁰ Марру А.И. История воспитания в античности. - М., 1998. - 80 с

¹¹¹ ЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ЭСТЕТИКИ ПЛАТОНА Синицкий Дмитрий Анатольевич канд. филос. наук, доцент кафедры философии и социальных наук ИАТЭ НИЯУ МИФИ 2017-у

Abu Nasr Farobiy (870-950) Farobiy bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni, ularni doimiy ravishda yangi g‘oyalar bilan tanishtirishni, savol berishga va fikrlashga undashni muhim deb bilgan. Farobiy fikriga ko‘ra, bola o‘zini ifoda etish va yangi g‘oyalar yaratishda erkin bo‘lishi kerak, va bu uning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) bola tarbiyasida u bilan yakka xolda suxbatda bo‘lish usulini tavsiya qiladi. Suxbat chog‘ida xalqning xikmatli so‘z va ertaklaridan misollar aytib, mazmunini, axloq-odoblilik ma’nosini tushuntirmoq eng ma’qul usuldir. Bola aytilgan gaplarni e’tibor bilan tinglab, suxbatdan mamnunligi sezilganda uning faoliyatidagi yaxshi ishlar maqtovg‘a sazovor ekanini aytib, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini tuzatish yo‘llari ko‘rsatilmog‘i kerak.¹¹² Tarbiyachi-pedagoglar tarbiyalanuvchining ruhiyati, fikrlash qobiliyati, xavas-istaklari, axloq-odobi haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Ularning ana shunday sifatga ega bo‘lishi ta’lim-tarbiya sifatini yuqori darajada bo‘lishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojibning (1020-1070) “Qutadg‘u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug‘laydi. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir. Bundan tashqari asarda oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e’tibor beradi. Ota-onalar nazoratida bo‘lgan bolaning ma’suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqiyi alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining kelajak kamoloti uchun muhimdir¹¹³.

Burhoniddin Marg‘inoniyning (1126-1197) bola ijodiy qobiliyatini rivojlantirish haqidagi fikrlari quyidagicha: Marg‘inoniy, yoshlarni ijodiy fikrlashga va o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rishga undashni muhim deb bilgan. Uning fikricha, bolaning ijodiy salohiyati erkin fikrlash va yangi g‘oyalarni yaratish orqali rivojlanadi. Bu jarayonni rag‘batlantirishda pedagoglarning va ota-onalarning roli katta. Ular bolaga o‘z fikrini ifoda etishga va yangi g‘oyalar yaratishga yordam berishlari kerak. Marg‘inoniy bola tarbiyasida axloqiy qadriyatlar va yaxshi odatlar o‘rganilishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun bolaga yaxshi odob-axloq, o‘zini tutish va jamiyatga xizmat qilishni o‘rgatish zarur. Axloqiy yuksalish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini haqiqiy ma’noda rivojlantiradi. Burxoniddin Marg‘inoniy bola tarbiyasini faqat ilm bilan bog‘lamasdan, uning ruhiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishiga ham e’tibor berishni zarur deb bilgan. Bola turli fazilatlarni o‘rganganida, uning ijodiy fikrlash va yaratish qobiliyatlari yanada rivojlanadi¹¹⁴.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1519) ijobiy xislatlarni kishilarda bo‘lishi shart bo‘lgan insoniy fazilat deb tushunadi va sabr, pokizalik, hayo, iffat, sobitqadamlik, saxiylik, saxovat,

¹¹² Durdona Bahodir qizi Sag‘dullayeva ABU ALI IBN SINO NAZARIYASIDA TA’LIM TARBIYA
<http://www.scientificprogress.uz/> 941-943- betlar

¹¹³ N.R.Ashurov, G.Davronbekova. Buyuk allomalarning bolalarning ijodiy qobiliyatlari haqidagi qarashlari. Science, education, innovation: modern tasks and prospects Наука, образование, инновации: современные задачи и перспективы Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari. 2024. 172-bet.

¹¹⁴ “MUTAFAKKIRLAR” Bolalar uchun risolalar turkumi SHUKRULLO UMAROV BURHONIDDIN MARG‘INONIY O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 616-sonli tavsiyasi bilan chop etildi. «TAFAKKUR» NASHRIYOTI TOSHKENT – 2015-y

kamtarlik, rostgo‘ylik, shijoat, hushyorlik, baland himmatlilik, diyonatlilik, izzat-hurmatni bilish, ahdiga vafodorlik, andishalilik, sir yashira olish kabi fazilatlarni birma-bir ta’riflab o‘tadi¹¹⁵.

Alisher Navoiy (1441-1501) ijodining markazida inson turadi. Allomaning nazaridagi inson ijodkor, qobiliyatli, bilimli, sabr-qanoatli, rostgo‘y adolatli, halol, insofli, mehnatsevar va kamtarlik kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxs. Navoiyning fikricha, Allohning irodasi bilan tog‘u toshlar, o‘simliklar dunyosi, dengiz va okeanlar, bir so‘z bilan aytganda butun borliq yaratilgan. Alisher Navoiy, odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruhiy, ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi, voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi. Navoiyning fikricha, yaxshi ta’lim va tarbiya olgan har bir kishi Iskandar kabi bo‘lmog‘i mumkin, buning uchun aslzoda va shaxzoda bo‘lishi shart emas:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi, xayovu adab¹¹⁶.

Demak kishining chinakam insonligi, uning nasl-nasabida, aslzoda bo‘lishida emas, balki tarbiyali va xayoli bo‘lishidadir, kishilar xaqiqiy insonlikka tarbiya va ta’lim yo‘li bilan erishadilar. Mir Alisher Navoiy bolalar tarbiyasini barvaqt boshlashni ma’qul, ko‘rgan holda, barcha mutafakkirlarning fikriga qo‘shilgan insonning voyaga yetishida ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyos ekanligini, bu jarayonni azaliy an’analarga tayangan holda amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi. O‘rganilayotgan bilimlarni yod olish, xotirada saqlash va kezi kelganda tez-tez takrorlab turish ta’lim va tarbiya jarayonida muhim o‘rin egallab, bola xotirasini mustahkamlaydi, ilmlar chashmasiga kirib borishni ta’minlaydi, tarbiyalanuvchida muayyan tartib-intizomni shakllantiradi, bahs-munozara yuritish madaniyatini yuksaltiradi. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida ilgari surgan ta’limiy-tarbiyaviy g‘oyalari, ko‘plab nazariy mulohazalari milliy ma’naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy ijodiy rivojlanishni, insonning eng yuqori salohiyatini ochishga qaratilgan bir jarayon sifatida ko‘rgan. Uning **fikricha, ijod — bu nafaqat she’riyat va san’at, balki insonning ruhiy va axloqiy salohiyatini rivojlantirishning muhim vositasidir.**¹¹⁷ U o‘z asarlarida ijodiy rivojlanishini, tafakkur va yurak birligining mahsuli deb ta’riflagan. Navoiy axloqiy tarbiya va iymonning ijodiy rivojlanishga bo‘lgan ta’sirini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, faqat to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi, adolatli va vijdonli insonning ijodiy faoliyati haqiqiy ma’naviy boylikka aylanishi mumkin. “Maqomat al-ishq” asarida insonning qalbi va niyati pok bo‘lsa, uning ijodi ham yuksaladi, aks holda, u ma’naviy jabhada pasayadi. Alisher Navoiy inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikka ham alohida e’tibor bergan. Unga ko‘ra, insonning ijodiy rivojlanishi tabiat bilan hamohanglikni, uning go‘zalligini va

¹¹⁵ <https://azkurs.org/xusayin-voiz-koshifiyning-axloqiy-qarashlari-reja-xusayin-voiz.html>

¹¹⁶ Alisher Navoiy. Xamsa. T., « FAN » nashriyoti, 1960, 71- bet .

¹¹⁷ Tadjixon Sabitova Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 1075-1076- betlar

tartibini anglashni talab qiladi. Navoiy o‘zining “Xamsa” asarlarida tabiatning go‘zalligi va inson qalbiga ta’sirini tasvirlaydi, insonni uning go‘zalligiga muhabbat qilishga, u bilan uyg‘un bo‘lishga chaqiradi.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670) o‘zining “Buyuk didaktika” asarida bolani tarbiyalash va o‘qitish uning miyasiga rang-barang mualliflarning so‘zlari, aytgan gaplari, fikrlari, qarashlaridan iborat bo‘lgan ma’lumotlarni majburiy kiritish emas, balki bolada barcha narsa va hodisalarni anglash qobiliyatini shakllantirish ekanligini uqtiradi. Shu bois olim olamga boshqalarning “ko‘zi” bilan qarashga o‘rgatuvchi, boshqalar aqli bilan yashashga o‘rgatuvchi tizimlarini tanqid ostiga oladi¹¹⁸.

J.J.Russo (1712-1778) bolalarda o‘ziga xos anglash, ko‘rish va his qilish usuli mavjudligi haqida so‘zlaydi hamda mana shu bolalar usulini kattalar usuli bilan almashtirilishiga qarshi chiqadi. Olim: “Agar pedagog bolaning sa’y-harakatlariga so‘zsiz boshqaruvchilik qilayotgan bo‘lsa, bolaning boshi unga kerak bo‘lmay qoladi”, - deydi. Ta’limning maqsadi, uning fikriga ko‘ra, bilimlarni ko‘r-ko‘rona berish emas, balki bolani zarur bo‘lganda mana shu bilimlarni topishga o‘rgatishdir¹¹⁹.

Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘zining ilmiy, pedagogik va adabiy faoliyatida yoshlarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga katta e’tibor bergan. Uning pedagogik qarashlarida bola ijodiy qobiliyatini shakllantirish va uni rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan. Avloniyning bola ijodiy qobiliyati haqidagi mashhur so‘zlaridan biri quyidagicha: ***“Bola – dunyoning eng aziz va eng nozik gullaridir. Uni tarbiyalashda yaxshi niyat, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish lozim.”***¹²⁰

Bu so‘z orqali Avloniy bola tarbiyasining naqadar muhim ekanligini, bolalarga ilm, ijodiy rivojlanishini va to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish zarurligini ifoda etadi. Uning fikricha, bolalar nafaqat ma’lumot olish, balki o‘zining ijodiy salohiyatini rivojlantirishlari, tasavvur va fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlashlari kerak. Avloniyning bu qarashlari o‘zbek pedagogikasining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalar bilan pedagogik ish olib borishda aynan ulardagi tarbiya elementlariga alohida e’tiborli bo‘lish taqozo etiladi. Bu yosh – ma’naviy, ruhiy va ijodiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni faol egallash davridir. Shunga ko‘ra bola o‘zini anglashi, o‘z imkoniyatlarini sezishi, ularni ko‘rsata olishi uchun shart-sharoitni taqozo etadi.

Buning uchun esa aynan pape mashe texnologiyasining ijod namunalarini ko‘rsatish, yasash orqali layoqatlarni rivojlantirish mumkin. Pape-mashe bola ruhiy-psixologik va ma’naviy-badiiy tasavvurlarini o‘stirishdagi o‘rni juda katta. Pape-mashe va yasash malakalari bir tomondan tarbiyalanuvchining ichki ruhiyatini ochib bersa, uning emotsiyalarini chiqarishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan uning olamni ko‘rishi, ijtimoiylashuvi, o‘z qobiliyatlarini shakllantirishi, o‘zini namoyon etish tajribalariga ega bo‘lishi, o‘z shaxsini

¹¹⁸ Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To‘xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov PEDAGOGIKA TARIXI 2004 yil

¹¹⁹ <https://skillbox.ru/media/education/zhanzhak-russo-filosofiya-obrazovaniya-velikogo-myslitelya-epokhi-prosveshcheniya/>

¹²⁰ <https://hikmatlar.uz/author/269>

bosqichma-bosqich qurib, shakllantirish, o‘z ma’naviy dunyosini qurishi, o‘z kayfiyatlarini jilovlay olishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya’ni maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy, adabiy va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berish tavsiya etiladi. Ijodiy rivojlanish ko‘plab fazilatlarining birlashuvidir. Ijodkor shaxsni shakllantirish hozirgi bosqichda pedagogik nazariya va amaliyotning muhim vazifalaridan biridir. Uning rivojlanishi maktabgacha yoshdan boshlanadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, barcha bolalar qobiliyatlidir. Shu sababli, vaqt o‘tishi bilan bu qobiliyatlarni sezish, his qilish va bolalarga ularni amalda, haqiqiy hayotda namoyish etish imkoniyatini berish uchun imkon qadar tezroq harakat qilish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tasavvurlarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kundagi tarbiyaviy ishning ustuvor yo‘nalishidir. Bolalar har xil fe‘l-atvorga va aql darajasiga ega bo‘lgani kabi ulardagi iste’dod hamda ijodiyotga bo‘lgan intilish ham turlicha bo‘ladi. Ular o‘rtasida bir-birlarini anglash ruhi va o‘zaro ishonch vujudga keladi. Pedagog tarbiyachining bolalar diqqatini jalb qila olishi, bolalarda o‘zlari yaratadigan asarlarini emotsional ma’nosini anglashga intilishini vujudga keltirish, ularning olam haqidagi tushunchalarining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bola yaratilgan asarga qarab idrok qilar ekan, unda beixtiyor yaratuvchanlik va uni his etish shakllanadi.

Ijodiy rivojlanishini aqliy faoliyatning eng muhim shakllaridan biridir. U inson faoliyati, bilim va ko‘nikmalari bilan bog‘liq. Lekin ularning tezkorligini ta’minlash, egallash, mustahkamlash va amaliyotda samarali foydalanish bolada erta yoshdan boshlab shakllanishi kerak. Ijodiy rivojlanishini faol, maqsadli inson faoliyati, buning natijasida yangi narsa paydo bo‘ladi. Qobiliyat - bu tabiiy iste’dod. Inson qobiliyatlari bunday emas universal deb hisoblash mumkin bo‘lgan bolalar faoliyati bilim va ko‘nikmalar bilan cheklangan, lekin ularning tezkorligini ta’minlash egallash, mustahkamlash va amaliyotda samarali foydalanish nazarda tutiladi. Bu bolalarda ijodiy rivojlanishini kelajakdagi ijodiy yutuqlar va kashfiyotlar uchun asos yaratadi. Ijodiy qobiliyatlar rag‘batlantirish jarayonida namoyon bo‘ladi va yangi original g‘oyalarni nafaqat o‘rish bosqichida, balki o‘rish davrida ham amalga oshiriladi.

XULOSA

Ijodiy rivojlanish nima va u tarbiyalanuvchida qanday shakllanadi, degan savollarni ko‘plab pedagoglar va psixologlar o‘rtasida ko‘tarilgan. Ijodiy rivojlanish - bu shaxsning yangi fikrlar, g‘oyalar va mahsulotlarni yaratish qobiliyati. Qiziqish, ilhom, intilish kabi elementlar ijodiy rivojlanishning asosini tashkil etadi va ular inson ongida eng oliy darajada paydo bo‘lishidan tortib, namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy

faoliyat ehtiyoji esa yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishiga bo‘lgan ishtiyoqni bildiradi.

Pape-mashe texnologiyasi orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning tasavvurini kengaytirish, kreativ fikrlash va qo‘l motorikasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu texnologiya bolalarga turli materiallar yordamida yangi shakllar yaratish, o‘z ijodiy fikrlarini ifodalash imkoniyatini beradi. Pape-mashe orqali bolalar nafaqat estetik qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki muammolarni hal qilish, sabr va diqqatni jamlash kabi muhim ko‘nikmalarni ham o‘rgandilar.

Shuningdek, bolalar o‘z kichik asarlarini yaratish jarayonida ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar. Chunki ular bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashni, fikr almashishni va jamoaviy yondashuvni o‘rganadilar. Pape-mashe texnologiyasi bolalar uchun o‘ziga xos o‘yin va ta‘lim shakli sifatida nafaqat ijodiy salohiyatni oshirishga, balki shaxsiy rivojlanishga ham yordam beradi.

Umuman olganda, pape-mashe texnologiyasining bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Bu texnologiya bolalarga yangilik yaratish jarayonida o‘zini ifodalash, ijodiy salohiyatlarini kengaytirish va tasavvurni oshirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

2). Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna “Bolalar ijodiy rivojlanishida pape mashe-texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga tadbiq etishni takomillashtirish(MTT tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari misolida)”.

3). MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI Xasanova Marg‘uba Safar Qizi Maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrasida Katta o‘qituvchisi, Toshkent amaliy fanlar universiteti, 412-b 2020-y

4). Tadjixon Sabitova Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 1075-1076- betlar

5). Zunnunov, M. Xayrullayev, B. To‘xliyev, Sh. Qurbonov, X. Masudov, M. Qurbonov PEDAGOGIKA TARIXI 2004 yil

6). Мэппу А.И. История воспитания в античности. - М., 1998. – 80 с

7).ЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ЭСТЕТИКИ ПЛАТОНА Синицкий Дмитрий Анатольевич канд. филос. наук, доцент кафедры философии и социальных наук ИАТЭ НИЯУ МИФИ 2017-у

8). Durdon Bahodir qizi Sag‘dullayeva ABU ALI IBN SINO NAZARIYASIDA TA‘LIM TARBIYA 941-943- betlar

9). N.R.Ashurov, G.Davronbekova. Buyuk allomalarning bolalarning ijodiy qobiliyatlari haqidagi qarashlari. Science, education, innovation: modern tasks and prospects Наука, образование, инновации: современные задачи и перспективы Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari. 2024. 172-bet.

10). Пифагор. Педагогика и творчество, М.А. Soloviev, 2009

11). <https://skillbox.ru/media/education/zhanzhak-russo-filosofiya-obrazovaniya-velikogo-myslitelya-epokhi-prosveshcheniya/>

12). <https://hikmatlar.uz/author/269>

13). <https://muhaz.org/j-p-morgan-riskni-kelajakdagi-sof-daromadga-nisbatan.html>

14). <https://muhaz.org/1-tarbiya-tushunchasi-tarbiyaning-maqsadi-va-vazifalari-sharq.html>

15). <https://muhaz.org/keys-stadi-v2.html>

16). <https://muhaz.org/download/bolalarni-maktab-talimiga-tayyorlashda-ijodkorlikni-rivojlanti.doc>

17). Педагогические идеи отечественных и зарубежных мыслителей о воспитании, образовании и развитии ребенка
https://studme.org/378329/pedagogika/pedagogicheskie_idei_otechestvennyh_zarubezhnyh_mysliteley_vospitaniy_obrazovaniy_razvitiy_rebenka#128.